

**NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI**



# NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022-YIL YANVAR-IYUN (DASTLABKI MA'LUMOT)***



## Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022-yil yanvar -iyun oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 7 754,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 79,1 %ni tashkil etdi.

| 0,3% | 79,1% | 19,8% | 0,8% |
|---|---|---|---|
| B | C | D | E |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da

| | 2021-yil yanvar-iyun | 2022-yil yanvar-iyun |
|---|---|---|
| B | 101,1% | 22,7 % |
| C | 113,5% | 96,8 % |
| D | 100,5% | 168,1 % |
| E | 102,5% | 92,0 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib,* elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash *sanoati 68,1 % ga o'sishi hisoblanadi.*

## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**yanvar-iyun**

**2022-yil**
**23,4 mlrd. so'm**

**2022-yil**
**22,7%**

**2021-yil**
**30,1 mlrd. so'm**

**2021- yil**
**101,1%**

**B**

*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22,7 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**

**2021-yil**
**B**
**0,5%**

**2022-yil**
**B**
**0,3%**

**yanvar-iyun**

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 134,9 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,1 % ini tashkil etdi.*

**2021-yil yanvar-iyun** 85,5 %

**2022-yil yanvar-iyun** 79,1%

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,3 %ni (2021-yilning yanvar-iyun oylarida – 1,7 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 6,6 % (6,6 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 13,0% (11,1%) va quyi texnologiyalisi – 79,1 % (80,6 %)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 39,2 % (2021-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 19,4 % (2021-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,6 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,5 % (2021-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 101,1 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,0 % (2021-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 74,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,8 % (2021-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,7 %) ni tashkil etdi*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korhonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari


















Omuxta yem ming t




Aroq ming litr 100% spirt




Uzum vinosi ming l




Paxta tolasi, ming tonna




Paxta chigiti , ming tonna




Paxta linti ming t




*2022-yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 64,9 ming tonna bug‘doy uni ishlab chiqarilgan bo‘lib, (2021-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 0,6 % ga ko‘paygan ), 10,6 ming tonna paxta tolasi (49,1 % kamaygan), 7,7 ming. tonna yog‘ mahsulotlari (13,2 % ga ortgan) hamda 20,7 ming tonna paxta chigiti (51,2 %ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-iyun | 2022-yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Omuxta yem, ming tonna** | 31,6 | 30,6 | -1,0 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.** | 64,5 | 64,9 | 0,4 |
| **Paxta tolasi, ming t.** | 20,8 | 10,6 | -10,2 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.** | 6,8 | 7,7 | 0,9 |

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati 79,2 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 1,3 %ni, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati 72,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,9% ni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 401,2 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 6,4 % ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 274,6 mlrd so‘mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 3,5 %ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1170,4 mlrd so‘mni, joriy 2022-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1313,5 mlrd so‘mni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 12,2 %ga ortgan.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 253,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 191,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 61,9 mlrd. so‘mga kamaygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 2,5 %ni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyun oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 1783,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, uning jami ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 28,3 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2125,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 27,4 %ni tashkil etdi va 0,9 punktga kamaydi .*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,6 %ni yani jami 669,7 mlrd so‘mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 104 % ni tashkil etib 804,9 mlrd. so‘mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o‘tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 135,2 mlrd. so‘mga kamaygan.*



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 122,0 mlrd. so‘mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyati bo‘yicha 174,5 mlrd. so‘mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 2,3 %ni, tashkil etdi.*




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




*2021-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 5,2 mlrd. so‘mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 0,1 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 0,4 mlrd. so‘mga ko‘payib, 5,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,5 %ni yani 95,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o‘tgan yilga nisbatan 23,2 mlrd. so‘mga ko‘paygan va 119,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1532,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 19,8%ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 718,9 mlrd so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-iyun | 2022-yil yanvar-iyun | Farqi (+/-) |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 3257,3 | 2884,4 | -372,9 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 46,6 | 40,5 | -6,1 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 63,9 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 %ini) tashkil etdi.




| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-iyun | 2022-yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m*** | 38,1 | 41,4 | 3,3 |
| **Shahar xo‘jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig’ish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m*** | 11,7 | 11,8 | 0,1 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 4,7 mlrd. so‘m yoki 8,7 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 0,1 mlrd. so‘mga ko‘paygan.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4311,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan o‘sish 116,0 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 55,6 % ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

**2021-yil yanvar-iyun** — **33,7%**

**2022-yil yanvar-iyun** — **31,3%**

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

**2021-yil yanvar-iyun** — **66,3%**

**2022-yil yanvar-iyun** — **68,7%**

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib 40,9 % ni, shuningdek, To‘raqo‘rg‘on tumani 10,3 % ni, Chust tumani 9,9 % ni, Kosonsoy tumani 7,4 % , Namangan tumani 7,3 % ni tashkil etdi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 1759, 2 mlrd. so‘mni yoki jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 40,9 %i, To‘raqo‘rg‘on tumanida 445,6 mlrd so‘mni jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 10,3 %i shuningdek, Chust tumanida 425,2 mlrd. so‘m bo‘lib, 8,4 %ni tashkil etdi.*




**3 445,4** mlrd. so‘m

*2021-yil yanvar-iyun*

**4 311,5** mlrd. so‘m

*2022-yil yanvar-iyun*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** — **115,3 %**

**2022-yil** — **116,0 %**

## Namangan viloyati hududlari kesimida Sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 36,0 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 21,5 %ni, Chust tumani 8,2 %ni, Uchqo'rg'on tumani 6,3 % tashkil etdi.*

### Namangan viloyati

**2021-yil**

*6291,6 mlrd. so'm*

**2022-yil**

*7754,3 mlrd. so'm*

*yanvar-iyun*



**2021-yil** 111,8 %

**2022-yil** 108,6 %



## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 39,1% shuningdek, To‘raqo‘rg‘on tumani 13,9 %, Chust tumani 12,8 %ni tashkil etadi.*

**2192,7** mlrd. so‘m

*2021-yil yanvar-iyun*

**2964,0** mlrd. so‘m

*2022-yil yanvar-iyun*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** 113,7 %

**2022-yil** 120,3 %




o‘sish sur’ati

mlrd. so‘m

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib 44,7 %ni, shuningdek, Uchqo‘rg‘on tumani 11,0% ni, Namangan tumani esa 8,6 %ni tashkil etdi.*




o‘sish sur’ati | mlrd. so‘m

**1252,6** *mlrd. so‘m*
*2021-yil yanvar-iyun*

**1347,5** *mlrd. so‘m*
*2022-yil yanvar-iyun*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** **119,2 %**

**2022-yil** **107,6 %**

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To‘raqo‘rg‘on tumani (7 105,5 ming so‘m), Namangan shahrida (4 206,6 ming so‘m), Uchqo‘rg‘on (2 711,1 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (2 632,9 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*




*o’sish sur’ati*

*ming. so‘m*

### Namangan viloyati

2021-yil — 2184,3 ming. so‘m

2022-yil — 2632,9 ming. so‘m



2021-yil — 109,6 %

2022-yil — 106,2 %

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Namangan viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1463,9 ming so‘m bo‘lgani holda, Namangan shahrida – 2646,4 ming so‘mni, To‘raqo‘rg‘on tumanida 1897,2 – Namangan tumanida 1712,3 ming so‘mni, tashkil etdi.*

### Namangan viloyati

**2021-yil**
1196,1 ming. so‘m

**2022- yil**
1463,9 ming. so‘m



**2021-yil** 113,0 %

**2022-yil** 113,5 %

*o’sish sur’ati*




*ming. so‘m*

# Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2022-yilning yanvar –iyun oylarida %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3479,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,9 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo`rg`on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Mingbuloq (93,3 %) va Uychi (71,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng kichkina ulush To‘raqo‘rg‘on (10,3 %), Uchqo‘rg‘on (16,6 %), Kosonsoy (39,7 %) va Norin (40,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin



## Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 7477 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2 835 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 37,9 % i) Namangan shahriga, 571 tasi (7,6 %) Kosonsoy tumaniga, 554 tasi (7,4 %) Uychi tumaniga, 536 tasi (7,2 %) Namangan tumaniga, 535 tasi (7,2 %) Chust tumaniga, 471 tasi (6,3 %) To‘raqo‘rg‘on tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.




### Jami yangi tashkil etilgan

2021-yil — 967 dona

2022-yil — 849 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

2021-yil — 7130 dona

2022-yil — 7477 dona

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

*Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 163 ta loyiha bo‘yicha 509,9 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 6,7 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.*

| | 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|---|
| **Loyihalar soni**, *birlikda* | 99 | 163 |
| **Korxonalar soni**, *birlikda* | 57 | 77 |
| **Ishlab chiqarish hajmi**, *mlrd. so‘m* | 230,8 mlrd. so‘m | 509,9 mlrd. so‘m |
| **Yaratilgan yangi ish o‘rinlari**, *birlikda* | 440 | 910 |

*Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-iyun oylarida 910 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o‘rinlari soni 2,1 marta ko‘payganligi kuzatildi.*